

OILA PSIXOLOGIYASI VA GENDER STREOTIPLARI: FARZAND TARBIYASI VA IJTIMOIIY ONGGA TA’SIRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-407-408>

Xayrullayeva Odina Fathulla qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Amaliy fanlar fakulteti Psixologiya yo’nalishi
2-kurs talabasi
xayrullayevaodinabonu454@gmail.com

Ilmiy rahbar: Baxtiyorov Rafail

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Amaliy fanlar fakulteti “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda oilaga kam e’tibor ko’rsatilib farzandlar tarbiyasiga befarq qaralmoqda. Xalq og’zaki hayotidagi ba’zi streotiplarga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilishi kerak. Bu bilan jinslar o’rtasidagi teng bo’lishi kerak bo’lgan muommolar yotibti. Jamiyat kichik jamiyat bo’lmish oiladan boshlanadi va bunga ota ham ona ham to’laqonli hissasini qo’shishi kerak.

Аннотация: В современном обществе мало внимания уделяется семье, а воспитанию детей уделяется мало внимания. Некоторые стереотипы в народной устной жизни нуждаются в изменении и дополнении. Это сопряжено с проблемами, которые должны быть одинаковыми для обоих полов. Общество начинается с семьи, которая представляет собой небольшую общину, и как отец, так и мать должны вносить в нее полноценный вклад.

Abstract: In modern society, little attention is paid to the family and the upbringing of children is indifferent. Some stereotypes in folk oral life need to be changed and supplemented. This is fraught with problems that should be equal between the sexes. Society begins with a family, which is a small community, and both father and mother must make a full contribution to it.

Sharq mamlakatlarida oilaga chuqur urg’u beriladi. Bunda erkak va ayolning o’rni ajratib ko’rsatilgan. Bunda erkaklar pul topishi va oila boqishi haqida ayollar esa uy ishlari va farzand tarbiyasi bilan shug’ullanishi haqida gap ketadi. Bu degani ayollar bilimsiz bo’lishi, o’qimasligi kerak yoki erkak kishi farzand tarbiyasiga aralashmasligi kerak degani emas. Hozirda dolzarblashib borayotgan gender tengligi aynan shu jihatlarga ko’proq e’tibor beradi. Ya’ni ayollar faqatgina uy, farzand va oshxona uchun yashashi kerak emas. Ular ham erkaklar singari o’qishi ishlashi imkoniyatlardan teng foydalanishi nazarda tutilgan. Erkaklarda esa oila

bilan farzand bilan yaxshi munosabat qilishi onalar kabi farzandi uchun qayg'urishi nazarda tutilgan.

Jamiyatimizda [erkak kishi yig'lamaydi] (xalqona qarash) degan streotiplar mavjud. Bu albatta xato. Agar erkak yig'lamasa u hissiyotlar bostiriladi. Bostirilgan hissiyotlar nimalarga olib kelishi barchamizga ayon. Ayollarga esa [sen shu narsaga chidashing kerak] (xalqona qarash) degan streotiplarni uqtirib kelishadi. Bu esa fikrni bildirsa olmaslik sukunatga olib keladi. Bunday hollarda ayollar o'z ehtiyojlarini chetga surib qoysa, erkaklar his-tuyg'ularini tan olmaydi. Aynan shular ko'zga uncha tashlanmasa ham katta muommolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol qilib ajrimni olsak bo'ladi. Shu kichik jihatlarida ham jins tengligi yani gender tengligini yo'lga qoysak ba'zi muommolar bartaraf boladi.

Jamiyatda erkak va ayol oila qurarkan ular o'z ota-onalaridan yuqtirib olganlarini ko'rsatishadi. Ya'ni farzandni shu yo'sinda tarbiya qilishadi. Erkin fikrlab o'z his-tuyg'ularini ko'rsata oladigan insonlarning farzandlari ham shunday bo'lish ehtimoli kuchli. Lekin ota-onalaridan jimlikni, o'zini chetga surishni va his-tuyg'ularini tan olmasdan ulg'aygan insonlar garchan qiyin bo'lsada bu zanjirni uzib hayotni yangi sahifadan boshlashlari kerak. Bu haqda **Gulseren Budayici og'lu** o'zining “**Madalyon ichida**” asarida hayotiy voqealar bilan yaqqol ochib bergan. Undagi [Bola bu dunyoga uni birinchi his qiladigani bu qorquv, o'lim qo'rquvi. Agar uni quchog'iga olgan ona hayotdan mamnun bo'lsa, huzurli bo'lsa va bolasini katta mehr bilan bag'riga bossa bu qorquv brogan sari kamayib boradi. Vaqti kelib uni o'rnini xuzur halovat egallaydi. Dunyodan va yashashdan qo'rqmagan sevilishini va qadrlanishini bilgan insonlar hayotlari davomida zo'ravonlikdan yiroq bo'lishadi.] jumlada ham bola ijobiy tuyg'ular bilan hayotga qizishishi oshishi va yaxshi yashashi aytilgan. Ammo bu uchun oila tinch va qolganlarning ruhiy holati joyida bo'lishi kerak. Ayollarga pas nazar bilan qaralib ular ustidan zo'ravonlik qilinar ekan jamiyat tanazul yoqasiga yaqinlashib boradi. Shuning uchun ham bugungi kunda gender tengligi masalasi butun jahon uchun dolzarblashib bormoqda. Jamiyatda umumiy masalalarda jins tengliga bo'lmasa zo'ravonlik suidsid va shunga o'xshash og'ir holatlar kuzatilishda davom etadi. Bizga kichikdek ko'ringan narsalar aslida ahamiyatlidir. Jamiyat kichik jamiyat bo'lmish oiladan boshlanadi. Yetuk, o'ziga ishongan insonlar farzandlarini ham shunday voyaga yetkazishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Budayicio'glu, G. (2004). Medalyon ichida (Inside the Medallion). Turk: Nashriyot.
2. Ibodullayev, Z. (2025). Klinik psixologiya. Toshkent: Nashriyot. 487 bet.
3. Erkinboyeva X. Shokirov A. Oilaviy munosabatlarga gender streotiplarining ta'siri. Journal of Education, Ethics and Value. 2024